

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INOVASIYALAR
VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI



**MASOFAVIY TA'LIM KAFEDRASI
“DINSHUNOSLIK”
FAN SILLABUSI**

(DIN1204)

Bilim sohasi:	200 000 - San'at va gumanitar fanlar, 400 000-Biznes, boshqaruv va huquq, 500 000-Tabiiy fanlar, matematika va statistika, 700 000-Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari, 800 000-Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya, 1000 000-Xizmatlar 220 000-Gumanitar fanlar(tillardan tashqari), 410 000-Biznes va boshqaruv, 530 000-Fizikaga oid fanlar, 540 000-Matematika va statistika, 720 000-Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari, 810 000-Qishloq xo'jaligi, 1010 000-Xizmat ko'rsatish sohasi,
Ta'lim sohasi:	60220300-Tarix, 60411300-Biznesni boshqarish, 60530400-Geografiya, 60540100-Matematika, 60540200-Amaliy matematika, 60721200-Yengil sanoat muhandisligi, 60811300-Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish, 61010300-Sport faoliyati(valeybol,futbol,kurash)
Ta'lim yo'nalishi:	

© Ushbu hujjat Guliston davlat universiteti mulki hisoblanadi va uni oluvchilar uchun maxfiy bo‘lib, to‘liq yoki qisman nusxa ko‘chirilishi, tarqatilishi yoki ko‘paytirilmasligi yoki uchinchi shaxslarga berilmasligi kerak. Ushbu materialni ko‘paytirish, tarqatish, nusxalash, oshkor qilish, o‘zgartirish, tarqatish yoki nashr etishning har qanday shakli qat’iyan man etiladi.

Fan o‘qituvchisi to‘g‘risida ma’lumot

Kun	
Avgust 2024	Ushbu sillabus Guliston davlat universiteti kengashining 2024-yil “___ “ _____ dagi - sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.  Tuzuvchilar: S.Ismoilov -“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti, f.f.n. A.Allayarov-“Masofaviy ta’lim” kafedrasi katta o’qituvchisi.
	  Taqrizchilar: R.Mahmudov-GulDU “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi professori. U.Mavlyanov-GulDU “Tarix” kafedrasi mudiri, f.f.b.f.d. PhD.

Eslatma: Ushbu fan sillabusi Lomonosov nomidagi MDU ta’lim dasturlari asosida takomillashtirildi.

MUNDARIJA:

DIN1204: Dinshunoslik	3
1. Fan tavsifi	3
2. Fanning dastlabki rekvizitlari	3
3. Fanning maqsadi	3
4. Ta'lim berish natijalari	3
5. Ta'lim berish usullari	4
6. Soatlar/kreditlar	4
7. Fanning tarkibiy tuzilishi	4
8. Talabalar bilimini baholash	7
9. Adabiyotlar	7
10. Akademik talablar	8

“DINSHUNOSLIK” (DIN1204)

1.Fan tavsifi

“Dinshunoslik” fani talaba-yoshlar tafakkurida dinning mazmunmohiyati, dunyoning diniy manzarasi, diniy va falsafiy qarashlarning o’zaro bog’liqligi, globallashuv va diniy jaryonlari hamda zamonaviy diniy harakatlar, diniy aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizmning davlat va jamiyat xavfsizligaga salbiy ta’sirini bilish va unga qarshi kurashishda nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat.

2.Fanning dastlabki rekvizitlari

Ushbu fanni o‘zalshtirish uchun talabidan ijtimoiy fanlar turkumiga kiruvchi Falsaфа, Ma’naviyatshunoslik va O’zbekiston tarixi fanlaridan zarur bilimlarga ega bo’lish talab etiladi.

3.Fanning maqsadi

Ushbu sillabus fanning maqsadlarini tavsiflaydi. Talabalarda din, uning ma’naviy hayotimizdagи o’rni haqida xolis, to‘g‘ri bilim olishga yordam beradi, ular dunyoqarashini shakllantirish hamda yuksak ma’naviyatlari kadrlarni tarbiyalashga hizmat qiladi.

4.Ta’lim berish natijalari

Ushbu fanni muvaffaqiyatli o’zlashtirgan talabalar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi:

1. Dinshunoslikning fan sohasi sifatida paydo bo‘lishi, uning tarixi va ta’limotlari; dinlarning dunyo xalqlari madaniyati, urf-odatlariga ta’siri; diniy dunyoqarashning shakllanishi; dunyo xalqlari dinlari haqida tasavvurga ega bo‘lish
2. Dunyoning diniy-konfessional manzarasi haqida tasavvurga ega bo‘lish
3. Dinning ijtimoiy-madaniy va ma’naviy-axloqiy hayotdagi o’rni haqida tasavvurga ega bo‘lish
4. Dunyo dinlari va asosiy diniy konfessiyalarning diniy-ilohiy tizimi asoslari va maqsadini; Markaziy Osiyoda mavjud bo‘lgan dinlarning ta’limotlari haqida bilimga ega bo‘lish
5. Turli dinga ishonuvchilar va ishonmaydiganlar bilan umumiy til topishish, ular bilan muloqot qila olish ko‘nikmasiga ega bo‘lish
6. Din nomi bilan sun’iy bog‘langan ma’naviy tahdidlar, axborot xurujlariga qarshi kurashish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi
7. Dinning xalqimiz urf-odatlarida aks etishini; dinning inson va jamiyat hayotida tutgan o‘rnini bilishi va foydalana olishi

5.Ta’lim berish usullari

- dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlar (masalan, esse)da yozma bayon qilish;
- ma’ruzalar tayyorlash;
- konspekt yozish;
- glossariy tuzish;
- individual va jamoaviy o’quv loyihasi tuzish;
- keys-topshiriqlarini bajarish;
- axborot-tahliliy materiallar bilan ishslash;
- manbalar bilan ishslash;
- taqdimotlar tayyorlash.

6.Soatlar/kreditlar

Ta'lif turi	Ma'ruza Soat/kredit	Amaliy mashg'ulot Soat/kredit	Laboratoriya Soat/kredit	Mustaqil ta'lif Soat/kredit	Jami Soat/kredit
Sirtqi	3-semestr uchun				
	8	8	0	104	120/4
Yillik jami	8	8	0	104	120/4

7.Fanning tarkibiy tuzilishi

Nº	Mavzular	Soat	Ma'ruza mashg'ulotida ko'rildigan masalalar	Soat	Amaliy (seminar) mashg'ulot mavzulari	Soat	Mustaqil ta'lif va mustaqil ish mavzulari	Soat
1	1-mavzu. Dinshunoslik fanining predmeti, maqsadi va vazifalari	8	Din, dinshunoslik, din falsafasi ilohiyot tushunchalarining mohiyati. Dinning funksiyalari va ijtimoiy ahamiyati. Dinshunoslikning fan sifatida shakllanishi, predmeti, funksiyalari, kategoriyalari.	2	Din ijtimoiy madaniyat hodisa sifatidagi ahamiyati.		Hozirgi globallashuv sharoitida din arayishnfeш	6
2	2-mavzu. Milliy dinlar	8	Yahudiylik dinining yuzaga kelishi. Hinduizm dinining mazmun mohiyati. Konfutsiylik ta'lomit va uning Xitoy milliy diniga aylanish jarayonlari.	2	Milliy dinlar		Zardushtiylik milliy din sifatida	6
3	3-mavzu. Buddizm dini tarixi va asosiy g`oyalari	8	Buddaviylik dinining paydo bo'lish tarixi, asosiy ta'limatlari, oqimlari va manbalari. Tripitakan va buddaylikning muqaddas manbalari. Buddaviylik rohibi Dalay Lamaning faoliyati.		Buddaviylik dini	2	"To'rt haqiqat g`oyasi	6
4	4-mavzu. Xristian dini tarixi va asosiy g`oyalari	8	Xristianlikning paydo bo'lishi, aqidalari, asosiy yo'nalishlari, ta'limatlari va manbalari. Xristianlik yo'nalishlari: katolitsizm, pravoslavlik va protestantlik. Rim-katolik cherkovi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari.		Xristianlik dini	2	"Injil" xristianlikning muqaddas kitobi	6
5	5-mavzu. Islom dini tarixi va mohiyati	8	Islom dinining paydo bo'lishidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy sharoitlar. Payg'ambarlik va vahiyning talqini. Tavhid aqidasi. Islom dinining besh sharti.		Islom dini		"Qur'oni karim" islomning muqaddas kitobi	8
6	6-mavzu. Islom dini manbalari, aqidaviy maktablari va ularning hozirgi davrdagi	8	Qur'on, hadis, fiqh, aqida ilmlarining shakllanish tarixi.		Hadis tushunchasining mohiyati, hadislarning turlari va tasnifi. Buyuk muhaddislarning hayoti va ijodi. O'zbekistonda		Esxatologiyaning mohgiyati	8

	ahamiyati			hadisshunoslikning rivoji.			
7	7-mavzu. Islom fiqhiy maktablari	8	Hanafiylik mazhabining asoschisi Abu Hanifa hayoti va ta'lomit. Hanafiyaning islom fiqxi tarixidagi o'rni. Movarounnahrda hanafiy mazhabi va Markaziy Osiyo faqihlari. Movarounnahrda fiqh ilmining mashhur namoyandalari.	Markaziy Osiyo tarixida Xanafiy mazhabining o'rni		Imomi a'zam hayoti va faoliyati	8
8	8-mavzu. Tasavvuf ta'lomitining Sharq madaniyatiga ta'siri	8	Tasavvuf ta'lomitining shakllanish tarixi, mohiyati va asosiy g'oyalar. Tasavvuf ta'lomitida Qur'onidagi nafs tarbiyasi, zuhd va zohidlikka oid g'oyalarining rivojlantirilishi.	Tasavvuf ta'lomitida ilohiy ishq g'oyasining mohiyati. Ilk tasavvuf adabiyotlarining talqini. Islomda avliyo tushunchasining sharhi.		Tasavvufda ruhiy tarbiya bosqichlari va maqom. Zamonaviy tasavvuf tariqatlari.	8
9	9-mavzu. Islom qadriyatlari va ma'rifatining hozirgi davrdagi ahamiyati	8	Islom dinida ijtimoiy tenglik, adolat, bag'rikenglik va vatanparvarlik g'oyalarining mohiyati. Islom inson huquqlari haqida.	Islomda atrof muhitni muhofaza qilishning ustuvor yo'nalashlari. Islom dini nikoh va oilaviy munosabatlar, er-xotinning huquq va majburiyatlari haqida.		XXI asrda O'zbekiston ulamolari tomonidan tinchlik, ilm-ma'rifat va bag'rikenglikga oid adabiyotlar tahlili.	8
10	10-mavzu. Yangi diniy ta'limotlar va sektalar	8	Yangi diniy harakatlar paydo bo'lishining sababları va yo'nalishlari. Bahoiylik va qodiyoniylig (ahmadiylik) harakatlari.	Yangi xristianlik harakatlarining yo'nalishlari. O'zbekistonda faoliyati kuzatilgan norasmiy diniy jamoalarning faoliyati. fi		Zamonaviy diniy sektalar va ularning barqaror taraqqiyot maqsadlariga salbiy ta'siri.	8
11	11-mavzu. Kiber makonda din. Missionerlik va prozelitizmning ijtimoiy- siyosiy xavfi	8	Kiber makon, kiber zo'ravonlik (cyberbullying), kiber xavfsizlik tushunchalarining mohiyati.	Missionerlik va prozelitizmning siyosiy-ijtimoiy xavfi	2	Kiber xavfsizlik usullari. Missionerlikning maqsad va vazifalari	6
12	12-mavzu. Diniy fanatizm, ekstremizm, fundamentalizm, terrorizmning tarixi va ularning hozirgi davrda xavfsizlikga tahdidi	8	Diniy fundamentalizmning tarixi va rivojlanish bosqichlari Diniy aqidaparastlik (fanatizm), ekstremizm paydo bo'lishining ijtimoiy-tarixiy zaminlari va rivojlanishi. Terrorizmning mohiyati va uning shakllari.	Diniy fundamentalizm, radikalizm va terrorizmning tarixi va yo'nalishlari	2	Terrorizmning tarixi va turlari talqini	6
13	13-mavzu. O'zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy tashkilotlar i	8	O'zbekiston musulmonlar idorasining tashkil etilish tarixi va ahamiyati. Xalqaro islom sivilizatsiyasi markazi va Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi faoliyatining maqsadi va vazifalari.	Dunyo mamlakatlari va O'zbekiston konstitutsiyasida vijdon erkinligi huquqining mohiyati. O'zbekistonda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar haqidagi qonunning qabul qilinishi tarixi va uning ahamiyati.	2	O'zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy konfessiyalarning tasnifi va konfessional jarayonlarning asosiy yo'nalishlari.	6
14	14-mavzu.		Xalqaro diniy tashkilotlar	2	O'zbekistonda	Xalqaro	6

	O'zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy tashkilotlar	8	faoliyatining yo`nalishlari. Islom hamkorlik tashkiloti, islom konferensiysi tashkiloti, fan, ta`lim va madaniyat bo'yicha islom tashkiloti. v		«Jaholatga qarshi ma'rifat» g'oyasining diniy terrorizmga qarshi kurashdagi ahamiyati. Geosiyosiy jarayonlarda din omili.		tashkilotlarning terrorizmga qarshi kurashining barqaror taraqqiyotni ta`minlashdagi roli.	
15	15- mavzu. Dun'yoviy va diniy bilimlar mutanosibligini ta'minlashning ahamiyati	8	Yangi O'zbekistonda dunyoviy va diniy ta`lim va tarbiyaning yo`nalishlari. Yangi O'zbekiston oliv ta`lim muassasalarida diniy ta`limni tashkil etishning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati, diniy ta`limning g'oyalari va usullari.	2	O`z-o`zini boshqarish organlarida (mahalla) diniy ta`lim va tarbiyani tashkil etishning ahamiyati. Ibodat va diniy marosimlarning shaxs kamolotidagi roli.		Diniy poklanish - katarsisning ijtimoiy psixologik mohiyati. Raqamlashgan sivilizatsiya davrida diniy e'tiqodni tarbiyalash va diniy matnlarni o`qishda xolislikni ta`minlashning zarurati.	6
	Jami	120	Jami	8	Jami	8	Jami	104

8.Talabalar bilimini baholash ***Talabaning kreditlarni to'plash tartibi***

Talabala joriy, oraliq nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishi, yakuniy nazoratni muvafaqiyatli topshirishi lozim. To'plangan reyting ballari asosida talabaning o'zlashtirish ko'rsatkichlari aniqlanadi.

Nazorat turlari	Nazorat soni	Ajratalgan ball	Jami
I (Joriy nazorat)	20	40	40
1.1. Seminar	4	5	20
1.2. TMI	2	10	20
II (Oraliq nazorat)	4	20	20
2.1. Test	1	5	5
2.2. Nazorat ishi	1	5	5
2.3. Referat	1	5	5
2.4. Konspekt	1	5	5
III (Yakuniy nazorat)	1	40	40
3.1. Yozma ish	1	40	40
Jami:	11	-	100

Izoh: Mustaqil ish topshiriqlarini baholash GulDU Kengashining 11- sonli bayoni bilan tasdqlangan "Talabalar mustaqil ta`limini tashkil qilishtar tibi" asosida baholanadi.

Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$\text{UB}=\text{JN}+\text{ON}+\text{YN}$$

buerda: JN – joriy nazorat; ON – oraliq nazorat; YN – yakuniy nazorat.

9.Adabiyotlar:

Asosiy adabiyotlar

1. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O'quv qo'llanma. -T.: OOO "Complex print", 2020. -198 b.

2. Kamilov D. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma. -T.: Lesson Press, 2021. -128 b.
3. Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik. -Toshkent, "Navro'z" nashriyoti, 2019. -264 b.
4. Raximdjanov D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma. -T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2018. -304 b
5. Shermuxamedova N.A. Diniy fanatizm fenomeni//Inson falsafasi. -T.: Noshir, 2016. B. 314-499.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T. 1. -Toshkent: O'zbekiston.. 2017.
2. Mirziyoyev Sh..M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birgaquramiz. - Toshkent: O'zbekiston. 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan engoliy bahodir. Toshkent: O'zbekiston, 2019.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 2021.
5. Abdug'ani Abdulla o'g'li. Musulmonlik haq-huquqlari va vazifalari. –T.: Adolat, 1993. 32-39 b.
6. Abu Xomid G'azzoliy Kimei saodat//Ikki dune saodatiga eltuvchi bilim. - Samarkand: Imom Buxoriy xalkaro markazi, 2019.
7. Azami A. Vvedenie v xadisovedenie. Kazan: 2011.
8. David L. McMahan. The Making of Buddhist Modernism. – Oxfordshire: "Oxford University Press", 2008.
9. Fitrat. Tanlangan asarlar –Toshkent: Ma'naviyat, 2010 -301 b.
10. G'oyibnazarov Sh. Islom terrorizmga qarshi. – Toshkent: "O'zbekiston"NMU, 2021.
11. Guttenplan K.S., Hornsby J., Janavay S. Readingpillasophy.Blackwell Publishers.Ltd.UK.2003.R-341.
12. Islomov Z., Haydarov I. Xristianlik: ibodatxona, ibodat va marosimlari. –Toshkent: Qaqnus nashriyoti, 2020.
13. Mamatov M. Tasavvuf ta'limotining tarixiy-falsafiy mohiyati. –T.: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2018. 196-198-b.
14. Rumiy J. Masnaviy. 40 rivoyatga sharx. -Toshkent: Navruz, 2019.
15. Todd M. Johnson. Religious Adherents of the World by Continent and Region // Religions of the World: A Comprehensive Encyclopedia of Beliefs and Practices / J. Gordon Melton, Martin Baumann. – Oxford, England: "ABC CLIO", 2010.

Axborot manbalari:

1. <http://www.ziyonet.uz>
2. <http://www.edu.uz>
3. www.google.uz.
4. <http://www.gov.uz>

10. Akademik talablar

O'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro munosabat samimiyl, shaffof, xalol va beg'araz bo'lishi shart. Talaba mustaqil bajargan topshirqlarni belgilangan tartibda elektron pochta yoki o'quv platforma orqali yuboradi va javobni ham shu tartibda oladi.